



**SEPSIS BILAN KASALLANGAN BEMORLARNI DAVOLASHDA
MUVOZANATLASHTIRILGAN AMINOKISLOTALARNING O'RNI**

Muralimova Ra'mogul Simai qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Anesteziologiya va reanimatologiya

kafedrasida katta o'qituvchisi

ranogulmuralimova@gmail.com

+998902178192

Ushbu tezizda sepsis oqibatida rivojlangan poliorgan yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda kompleks parenteral oziqlantirish tarkibida muvozanatlashtirilgan aminokislotalarni qo'llash samaradorligining har tomonlama klinik tahlili taqdim etilgan. Ushbu tadqiqotda sepsis va poliorgan yetishmovchiligi bo'lgan 80 nafar bemor ishtirok etgan bo'lib, ular ikkita guruhga ajratilgan: asosiy guruh (A, n=43) va taqqoslash guruhi (B, n=37). Asosiy guruhga kompleks terapiya tarkibida muvozanatlashtirilgan aminokislotalar (Akumin Gepa, Akumin-Nefro) kiritilgan. Energiya sarfi A guruhida 5-kungacha kamayish tendensiyasini ko'rsatgan (2612 ± 113 kkal/kun $\rightarrow$ 2328 ± 329 kkal/kun), B guruhida esa bu o'zgarish faqat 14-kunda kuzatilgan.

Azot yo'qotilishi ham A guruhida tezroq kamaygan bo'lib, 5-kunga kelib $22,9 \pm 1,1$ g/kun dan $18,3 \pm 1,1$ g/kun gacha pasaygan. Oqsil almashinuviga doir ko'rsatkichlarda, xususan albumin va transferrin darajalari A guruhida sezilarli va erta oshgan (albumin $24,2$ g/l $\rightarrow$ $33,28$ g/l, $p < 0,05$).

C-reaktiv oqsil darajasi A guruhida 5-kungacha tez pasaygan ($123,25$ mg/l $\rightarrow$ $79,82$ mg/l), B guruhida esa pasayish sust kechgan. Fibrinogen darajasi faqat A guruhida 10-kunga kelib sezilarli pasaygan ($5,35$ g/l $\rightarrow$ $4,09$ g/l, $p = 0,04$). Leykotsitar intoksikatsiya indeksi (LII) $4,56$ dan $1,86$ gacha kamaygan, bu esa endogen intoksikatsiyaning kamayganini ko'rsatadi. Nutritional Risk Index (NRI) A guruhida 14-kunga kelib normaga yaqinlashgan ($97,6 \pm 0,3$, $p < 0,05$), B guruhida esa bu natijaga faqat 9-kun oxirida erishilgan. Maastricht indeksi A guruhda 7-



kunga kelib 0 ga tushgan, bu esa oqsil-energiya yetishmovchiligining yo'qolganini ko'rsatadi. A guruhda SOFA shkalasi bo'yicha ballar $7,34 \rightarrow 4,75$ gacha pasaygan, APACHE II esa $31,4 \rightarrow 18,4$ gacha kamaygan. Bu asosiy guruhda umumiy holat og'irligi va organ yetishmovchiligi darajasining yaxshilanganini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari muvozanatlashtirilgan aminokislotalarni o'z ichiga olgan kombinatsiyalangan ovqatlanish sepsis va poliorgan yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda: Yallig'lanish reaksiyalarining tez pasayishi; Metabolik holatning erta normallasuvi; Oqsil va energiya yetishmovchiligining bartaraf etilishi; SOFA va APACHE II shkalalarida holat og'irligining sezilarli kamayishi bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa ushbu turdagi terapiyaning klinik jihatdan samarali ekanini isbotlaydi.